

Internet Tarmog‘i Xizmat Turlarining Zamonaviy Tahlili

Ernazarov Alisher Ergashevich

Yo‘ldosheva Noila

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada hukumatimiz tomonidan interaktiv xizmatlarni shakllantirish, tashkil etish va ularni boshqarishga katta e‘tibor berish haqida so‘z boradi. Interaktiv xizmatlarni tashkil etishning eng tez va yaxshi yo‘li, bu ularni internet tarmoqlari orqali amalga oshirish hisoblanadi. Internet tarmog‘i orqali ko‘rsatiladigan internet xizmat turlariga quyidagilar kiradi: transport vositalarining harakatlanish ma‘lumotlari, sayohat veb sayti, avia reyslar jadvali, temir yo‘l transporti qatnovi jadvali, ob-havo ma‘lumotlari, ish o‘rinlari birjalari, sport yangilikari, Davlat boshqaruv va xo‘jaik yurituvchi organlar veb sahifalari orqali k‘satiladigan interaktiv xizmatlar va boshqa xizmat turlarini kelirishimiz mumkin, maqolada aynan shu xizmat turlarini tashkil etishning afzalliklari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: internet, internet tarmog‘i, interaktiv xizmat turlari, Internet texnologiyalari, shuningdek, sanoat yoki moliyaviy texnologiyalar, ma‘lum maqsadlarga erishish uchun odamlarning birgalikdagi faoliyati amalga oshiriladigan vositalar va shakllarni belgilaydi.

Internet-texnologiyalari ko‘p sonli ishtirokchilarning harakatlarida yanada izchillikka erishish, shuningdek, ularning kelajakdagi harakatlarining mazmunini aniqroq aniqlash uchun axborot oqimlarini birlashtiradi. Internet texnologiyalari global miqyosda odamlar o‘rtasidagi aloqa va axborot almashinuvini yaxshilash uchun yangi keng uflarni ochadi. Hozirgi vaqtda Internet jadal rivojlanmoqda: har bir yarim-ikki yilda uning asosiy miqdoriy ko‘rsatkichlari ikki barobar ortadi. Bunda foydalanuvchilar soni, ulangan kompyuterlar soni, axborot va trafik hajmi, axborot resurslari miqdori tushuniladi. Internet rivojlanmoqda va sifat jihatidan. Uni inson hayotida qo‘llash chegaralari doimiy ravishda kengayib bormoqda, tarmoq xizmatlari va telekommunikatsiya texnologiyalarining mutlaqo yangi turlari paydo bo‘ladi. Zamonaviy jamiyat hayoti tobora ko‘proq kompyuterlashtirilmoqda. Axborot xizmatlari samaradorligi va ishonchliligiga qo‘yiladigan talablar ortib bormoqda. Olimlar global tarmoqlarning tubdan yangi shakllarini ishlab chiqmoqdalar. Internet - bu avvaldan qabul qilingan kelushuvlar asosida faoliyat ko‘rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog‘idir. Uning nomi "tarmoqlararo" degan ma‘noni anglatadi. U mahalliy (lokal), mintaqaviy va global kompyuter tarmoqlarini birlashtiruvchi axborot tizimi bo‘lib, o‘zining alohida axborot maydoniga ega bo‘lgan virtual (hayoliy, faqat kompyuter xotirasida mavjud bo‘lgan) to‘plamdan tashkil topadi.

Internet xizmati turlari:

Internet, avvalambor, uning foydalanuvchilariga axborot xizmati ko‘rsatish uchun yaratilgandir. Umuman olganda, internet xizmat turlari nihoyatda ko‘p va xilma-xil bo‘lib (yangi xizmat turlari kun sayin paydo bo‘lib, ba‘zilari yo‘qolmoqda), ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

✓ WWW - elektron sahifa xizmati;

- ✓ elektron pochta xizmati;
- ✓ telekonferensiya (Usenet);
- ✓ fayllarni uzatish (FTP);
- ✓ domen nomi xizmati (DNS) (tarmoq hududlariga nom berish xizmati);
- ✓ Telnet xizmati;
- ✓ IRC - xizmati yoki Chat konferensiya;
- ✓ Ma'lumotlarni izlash xizmati.

World Wide Web (WWW)

WWW Internetning eng ommalashgan axborot xizmatlaridan biri sanaladi. Hozirgi vaqtda internet xizmatining 90% ga yaqinini WWW xizmati tashkil etadi. Internetga acoc solingandan boshlab (1969 yil) WWW xizmati tashkil etilgunga qadar, internet sekin rivojlandi va 25 yil davomida bor-yug'i 2 milliongayaqin foydalanuvchiga ega edi, xolos. WWW xizmati tashkil etilgandan so'ng esa (1996 yil) hap yarim yilda internet foydalanuvchilarining soni 1,5 barobarga ortib bordi. Bugungi kunda internet tarmog'ining foydalanuvchilari soni 300 milliondan ortiq.

Internet tarmog'i XX asrning 60-70 yillarida atom yordamida urush holatida ham ishlaydigan kommunikatsiya tarmog'ini tashkil qilishga qaratilgan mudofaa loyihasidan kelib chiqqan. Ishlab chiqaruvchilar fikricha, tarmoqning eng muhim sifati – bu hujum ob'yekti bo'lishi mumkin bo'lgan yagona boshqaruv markaziga ega emasligidir. Dastavval iyerarxik tuzilmaga ega bo'lgan tarmoq yaratilgan, unda bir hisoblash mashinasi ixtiyoriy boshqa hisoblash mashinasidan ustun emas va hech qaysi kompyuter tarmoqni ishlashi uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etmaydi. Keyinchalik Internet tadqiqot, tijorat, vaqtichog'lik maqsadlarida qo'llaniluvchi vositalarning amaliy natijalarini o'zida aks ettirdi. 1961 yili AQSH Mudofaa vazirligining istiqbolli tadqiqotlar loyihalari boshqarmasi (Defence Advanced Research Agency – DARPA) AQSH mudofaa vazirligi topshirig'iga asosan paketlarni uzatish uchun mo'ljallangan tajribaviy tarmoq yaratish loyihasiga qo'l urdi. Bu tarmoq ARPANET (The Advanced Research Projects Agency Network) deb atalib, turli kompyuterlar orasida barqaror aloqani ta'minlash usullarini tadqiq etish uchun mo'ljallangan edi. 1972 yilda ARPANET tarmog'ini birinchi namoyishi bo'lib o'tdi, unda R.Tompson elektron pochta kashf etdi. Shu vaqtda tarmoqda ma'lumot uzatish protokoli – TCP/IP yaratilgan edi. TCP/IP – bu turli kompyuterlar o'rtasida o'zaro aloqani qanday 19 bog'lanishini aniqlab beradigan ko'p sonli kommunikatsiya protokollari yig'indisidir.

O'zbekiston milliy internet resurslari :

- ✓ www.uz-Milliy axborot qidiruv tizimi,
- ✓ umal.uz- milliy elektron pochta xizmati,
- ✓ ziyonet.uz- axborot ta'lim tarmog'i,
- ✓ uforum.uz- muhokama veb portal.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, internetning imkoniyatlari cheksiz, asosiylaridan: uyingizda chiqmay turib internet orqali bankdagi pullaringizi boshqarish, uyingizda o'tirib dunyoning istalgan yeridagi kompaniyalarda ish faoliyatingizni olib borishingiz, shaxsiy biznesingizni yo'lga qo'yishingiz mumkin.

Dunyo bo'ylab do'konlarga buyurtma berish, Telegram, Facebok va Instagram kabi turli xl tarmoqlarda o'z hayot tarzingizni do'stlaringiz bilan bo'lishishni, dunyoning istalgan nuqtasidan turib electron pochta orqali tanishlaringizga xabarlarni tezkor yo'llash va mashhur insonlar haqida ko'plab ma'lumotlarni osongina topishingizga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ergashevich, E. A. (2023). PRACTICAL APPLICATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595)*, 3(2).
2. Turakulov, O., & Ernazarov, A. (2023). TALABALARNING INTELLEKTUAL QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(11), 70-75.
3. Ergashevich, E. A. (2023). ANALYSIS OF THE STATE OF USE OF MODERN TEACHING METHODS AND TECHNOLOGIES IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Journal of marketing, business and management*, 2(6), 7-12.
4. Ergashevich, E. A. (2023). Some Pedagogical Technologies Used in the Process of Organizing Training Sessions in Higher Education Institutions. *Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777)*, 1(9), 14-19.
5. Эрнazarov, A. (2023). OTMларда ўқув машғулотларини ташкил этишда талабалар фикрлашини ривожлантириш ва замонавий ўқитиш технологияларидан фойдаланиш. *Общество и инновации*, 4(9/S), 155-159.
6. Ergashevich, E. A., & Bahronovna, C. G. (2023). INNOVATIVE TRAINING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS MANAGEMENT FUNCTIONS. *International Journal of Engineering Mathematics (Online)*, 5(2).
7. Turakulov, O., & Ernazarov, A. (2023). TALABALARNING INTELLEKTUAL QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(11), 70-75.
8. Ergashevich, E. A. (2023). TALABA YOSHLAR MEDIASAVODXONLIGI-DAVR TALABI. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 6(3).
9. <https://uzinterbiz.com/yangi-boshlayotganlar-uchun/internet-nima-va-qanday-foydalanish-kerak/.html>
10. <https://kompy.info/internet-tarmogi-xizmatlari-va-ulardan-foydalanish-94--guruh-t.html>
11. [mohiyati-va-zaruriyati/viewer](https://kompy.info/mohiyati-va-zaruriyati/viewer)
12. “Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar” F.E.Jomonqulova, I.E.Shadmanov,”Iqtisodiyot-moliya”, 2022.